

QAYTA JINOYAT SODIR ETGAN VOYAGA YETMAGANLARNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Urunov Aziz¹

Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti Samarqand filiali

KEYWORDS

Voyaga yetmaganlar, qayta jinoyatchilik, psixologik portret, rehabilitatsiya, stigma, ijtimoiy moslashuv, mentorlik, profilaktika, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, jinoyat psixologiyasi.

ABSTRACT

Mazkur maqolada voyaga yetmaganlarning qayta jinoyat sodir etishiga ta'sir qiluvchi ijtimoiy-psixologik omillar tahlil qilingan. Dastlab, jinoyat sodir etgan voyaga yetmaganlarning umumiy psixologik portreti – ularning emotsional beqarorligi, oilaviy muhitning salbiyligi, o'zini anglashdagi qiyinchiliklar hamda ijtimoiy ta'sirga bo'lgan yuqori moyilligi ochib berilgan. Qayta jinoyatchilik sabablari, ya'ni rehabilitatsiya yetishmovchiligi, ijtimoiy stigma, psixologik izolyatsiya va ichki ijtimoiy norozilik yondashuvlari chuqur tahlil etilgan. Yakunida qayta jinoyatchilikni oldini olishda psixologik va ijtimoiy yondashuvlarning samarali shakllari – individual rehabilitatsiya, ta'lim, sport, murabbiylik, va davlat-NNT hamkorliklari asosida samarali mexanizmlar ishlab chiqish zarurligi ko'rsatib berilgan.

2181-2675/© 2023 in XALQARO TADQIQOT LLC.

DOI: **10.5281/zenodo.15765819**

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Voyaga yetmagan jinoyatchilar shaxsining psixologik portreti murakkab va ko'p omilli hodisa bo'lib, u nafaqat individual xususiyatlar, balki oilaviy muhit, ijtimoiy tizim va psixologik jarayonlar bilan chambarchas bog'liqdir. Jinoyat sodir etgan voyaga yetmagan shaxs ko'pincha emotsional beqarorlik, o'ziga nisbatan past baho, va ijtimoiy rollarni anglay olmaslik kabi muammolarni boshdan kechiradi.

Voyaga yetmagan shaxsning emotsional barqarorligi – bu uning his-tuyg'ularini tushunish, boshqarish va atrofdagilarga nisbatan adekvat ifoda eta olish qobiliyatidir. Jinoyatchilikka moyillik ko'pincha aynan bu barqarorlikning yo'qligi bilan bog'liq. Voyaga yetmaganlar, ayniqsa o'smirlik davrida, hissiy portlashlarga, agressiv javoblarga, xavfli xatti-harakatlarga moyil bo'lishadi. Bu – ularning impuls nazorati hali shakllanmaganidan dalolat beradi. Barkamol emotsional rivojlanmagan o'smirlar qaror qabul qilishda

¹ Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti Samarqand filiali "Pedagogika va psixologiya" kafedrası v.b. dotsenti
Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

emotsiyalarga berilib ketadi, oqibatni yetarli darajada baholay olmaydi. [1] Shu sababli ular ko'pincha jiddiy jinoyatga to'g'ri kelmaydigan holatlarda ham haddan tashqari reaktiv javob ko'rsatadi: masalan, oddiy kelishmovchilikda urushish, zo'ravonlik qilish yoki o'g'rilik kabi. Impuls nazoratining sustligi, shuningdek, frontal korteks faoliyatining to'liq shakllanmaganligi bilan izohlanadi. Bu esa voyaga yetmaganlarda uzoq muddatli oqibatlarni hisobga olmaslik, hozirgi lahzadagi ehtiyojni qondirishga moyillikni kuchaytiradi.

Voyaga yetmagan jinoyatchilarning katta qismi ijtimoiy himoyadan mahrum oilalarda voyaga yetgan bo'ladi. Oiladagi befarqlik, doimiy konfliktlar, spirtli ichimliklarga ruju qo'ygan ota-ona, jismoniy yoki ruhiy zo'ravonlik – bularning barchasi bolaning psixologik salomatligiga jiddiy zarar yetkazadi. [2] Mehr va e'tibor yetishmovchiligi – eng muhim omillardan biridir. Farzand o'zini sevilgan, qadrlangan deb his qilmasa, u ijtimoiy tan olinuvchanlikni boshqa, ko'pincha salbiy manbalardan izlaydi. Bu manbalar esa jinoyatkor guruhlar, zo'ravon do'stlar yoki jinoyatchilar bo'lishi mumkin. Zo'ravonlikka guvoh bo'lgan yoki bevosita zo'ravonlik qurboni bo'lgan o'smirlar o'zida normal empatiya qobiliyatini rivojlantira olmaydi. Shu sababli ularning jinoyat sodir etishda vijdon azobi sezmasligi, befarqlik yoki tajovuzni oqlovchi xatti-harakatlar namoyon bo'ladi. Ko'plab o'zbek va xorijiy ilmiy manbalar shuni ta'kidlaydiki, oilaviy beqarorlik – voyaga yetmaganlarning jinoyatga qo'l urishida eng kuchli prognozlovchi omillardan biridir.

Voyaga yetmaganlar o'z hayot yo'nalishini belgilab olishda katta ichki kurashlarni boshdan kechiradi. Ular hali o'z "men"ini to'liq shakllantira olmagan, qayerga tegishli ekanligini tushunmaydi, o'zining jamiyatdagi o'rnini anglashda qiynaladi. Shaxsiy identifikatsiya inqirozi – bu holat o'smirlar orasida juda keng tarqalgan. O'ziga past baho berish – jinoyatchilik uchun xavfli signal hisoblanadi. [3] O'zini past baholaydigan bola jamiyat oldida mas'uliyatli bo'lishni foydasiz deb hisoblaydi. "Baribir mendan odam chiqmaydi" degan ichki monolog unga ijtimoiy normalarni buzishga psixologik asos bo'lib xizmat qiladi. Ijtimoiy inklyuziya – ya'ni shaxsning jamiyatda o'z o'rnini topa olishi – voyaga yetmaganlarda kuchli profilaktik faktor hisoblanadi. Ammo bu imkoniyat bo'lmasa, ular o'zini "tashqarida" deb his qiladi va bu begonalik hissi jinoyatga olib boruvchi yo'lga boshlaydi.

Voyaga yetmaganlar o'z fikr va qarorlarini shakllantirishda katta yoshdagilarga nisbatan ancha ijtimoiy ta'sirga moyil bo'ladi. Ayniqsa, salbiy muhitda yashayotgan o'smirlar – jinoyat sodir etishga undovchi do'stlar, mahalla guruhlari, hatto jinoyatchilar bilan aloqada bo'lishi mumkin. Bunday ta'sir orqali voyaga yetmagan shaxs jinoyatni nafaqat o'ziga normal deb qabul qiladi, balki jinoyatni o'zini ifoda etish vositasi sifatida ko'ra boshlaydi. Guruh bosimi, ijtimoiy qabul qilinish istagi, va "qahramon" bo'lish istagi – o'smirni jinoyatga boshlovchi kuchli omillardir. [4] Masalan, jinoyatchilik guruhlariga qo'shilgan o'smirlar ko'pincha o'zini kuchli, himoyalangan, hurmatga sazovor deb his qiladi. Bu esa ularning aslida ichki nochorlik, xavotir va izolyatsiyani yashirish shaklidir.

Voyaga yetmagan jinoyatchilarning umumiy psixologik portreti ularning emotsional beqarorligi, oilaviy muammolar, o'zini anglashdagi qiyinchiliklar va kuchli ijtimoiy

ta'sirga duchorlik bilan belgilanadi. Bu xususiyatlar shunchaki simptom emas, balki chuqur ildiz otgan psixologik va ijtimoiy jarayonlar mahsulidir.

Mazkur portret asosida samarali profilaktika va rehabilitatsiya dasturlarini ishlab chiqish, jinoyat sodir etgan o'smirlarga inson sifatida yondashib, uni jamiyatga qaytarish mexanizmlarini kuchaytirish zarur. [5]

Voyaga yetmaganlarning qayta jinoyat sodir etishi (retsdivizm) ularning psixologik, ijtimoiy va huquqiy rivojlanishidagi jiddiy uzilishlar natijasidir. Bir martalik jinoyatni sodir etgan shaxsni jamiyatga integratsiya qilish mexanizmlari kuchli bo'lmasa, u o'sha jinoyat yo'lga yana qaytishi ehtimoli ortadi. Voyaga yetmaganlar odatda hayotiy qarorlarni emotsiyalarga asoslangan holda qabul qiladilar. [6] Jinoyatdan so'ng esa ularga nisbatan maxsus pedagogik-psixologik yondashuvlar talab qilinadi. Afsuski, ko'p hollarda bu rehabilitatsiya tizimi qog'ozda bo'lib, amalda yetarli darajada ishlamaydi. Masalan, jazoni o'tab bo'lgan o'smir shaxsiy rivojlanish dasturiga jalb etilmaydi, unga psixologik maslahatlar muntazam berilmaydi, jamiyatga moslashish mexanizmlari ishlab chiqilmagan. Bu esa uni yana o'sha eski muhit – jinoyatchi do'stlar, salbiy oilaviy sharoit – tomon tortadi. Psixologik yondashuvga ko'ra, bu holat "yo'qotilgan nazorat" deb ataladi: voyaga yetmagan o'zini hech kimga keraksiz, bo'shliqda qolgan kabi his qiladi va tanish jinoyat yo'lini yana tanlaydi. [7]

Jinoyat sodir etgan shaxs, ayniqsa voyaga yetmagan bo'lsa-da, ko'pincha jamiyat tomonidan qabul qilinmaydi. Uni o'qishga olish maydi, do'stlar chetlab o'tadi, ish beruvchilar rad javobi beradi. Bu esa ijtimoiy stigma – ya'ni "jinoyatchi" tamg'asi bo'lib, shaxsning o'zini jamiyat a'zosi deb his qilishiga to'sqinlik qiladi. Psixologik jihatdan stigma ichki izolyatsiyani kuchaytiradi. Bu holatda voyaga yetmagan shaxs shunday xulosaga keladi: *"Qanday bo'lsam ham baribir jamiyat meni qabul qilmaydi"*. Natijada u ijtimoiy inklyuziyadan (jamiyatga kirish, barobar huquqqa ega bo'lish) butunlay chetlanadi. Bu esa qayta jinoyat sodir etish xavfini keskin oshiradi. [8] Shu jihatdan, stigma – bu jinoyatchining o'tmishidan ko'ra, kelajagini buzuvchi kuchli psixologik to'siqdir.

Jinoyatga qo'l urgan voyaga yetmagan o'zida o'ziga ishonchsizlik, ichki zo'riqish, yakkalanish va umidsizlikni his qiladi. Agar bu hissiyotlar qayta-qayta yechimsiz qolaversa, u o'zgaradi – ko'pincha tajovuzga, hissiy sovuqlikka, jamiyatga bo'lgan befarqlikka aylanishi mumkin. Shaxs o'zini jamiyatdan ajratilgan deb biladi, yaqin kishilar yoki institutlarga (maktab, davlat, huquq tizimi) bo'lgan ishonchni yo'qotadi. U har qanday ijtimoiy normalarga shubha bilan qaraydi va ichki "himoya mexanizmi" sifatida zo'ravonlik yoki huquqbuzarlikka murojaat qiladi. [9] Bu psixologik yomonlashuv "ijtimoiy ishonchsizlik sindromi" nomi bilan tavsiflanadi. Bu sindrom qayta jinoyatchilik uchun psixologik zamin yaratadi.

Qayta jinoyat sodir etishda tashqi (obyektiv) va ichki (subyektiv) omillar o'zaro bog'liq holda ta'sir qiladi:

Ichki motivlar	Tashqi motivlar
O'zini jamiyatga nisbatan "adolat qurboni" deb his qilish	Moliyaviy ehtiyoj, qashshoqlik
Oldingi jazodan kelib chiqqan alam va intiqom istagi	Ish topishda muammolar
O'zini "qahramon" sifatida ko'rsatishga intilish	O'qishga qaytish imkoniyati bo'lmasligi
O'zining qadrsizligini jinoyat orqali "to'ldirish"ga urinish	Salbiy muhitga (jinoyatkor do'stlar, oilaviy zo'ravonlik) qaytish

Masalan, o'smir "menga hech kim ishonmaydi, demak men ham qonunni tan olmayman" degan fikr bilan jinoyat sodir etadi. Bu shunchaki huquqbuzarlik emas, balki ichki norozilik, psixologik qarshilik, va jamiyatga signal yuborish shaklidir. Qayta jinoyatchilik – bu shunchaki odat emas, balki chuqur ijtimoiy-psixologik muammolar mahsulidir. Voyaga yetmaganlar jinoyatga qayta murojaat qilayotgan bo'lsa, bu ularning "yomon odati" emas, balki jamiyat va tizimdagi yoriqlar, rehabilitatsiya mexanizmlarining samarasizligi, stigma va inklyuziya yetishmovchiligining natijasidir. Bu sababli jinoyatdan keyingi yondashuvlar faqat jazoga emas, balki to'liq insoniy tiklanish, psixologik qo'llab-quvvatlash va ijtimoiy qayta integratsiyaga qaratilishi lozim.

Voyaga yetmaganlarning qayta jinoyat sodir etish ehtimolini kamaytirish faqat jazo berish bilan emas, balki ularning psixologik holatini tiklash, ijtimoiy moslashuvga yordam berish va ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni shakllantirish orqali amalga oshiriladi. Bunda psixologik va ijtimoiy yondashuvlar muhim ahamiyatga ega bo'lib, ular individual va tizimli darajalarda olib borilishi kerak. Quyida **voyaga yetmaganlarning qayta jinoyat sodir etish ehtimolini kamaytirish**ning eng muhim yondashuvlar tahlil qilinadi:

1. Individual rehabilitatsiya dasturlari: psixoterapiya, mentorlik, ruhiy salomatlik yordami: Qayta jinoyat sodir etgan yoki bunday xavf ostida turgan voyaga yetmaganlarga individual yondashuv zarur. Har bir bola o'z psixologik holati, travmalari va ijtimoiy tajribasiga ega. Shuning uchun individual rehabilitatsiya dasturlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Psixoterapiya: voyaga yetmagan shaxsning ichki hissiyotlarini aniqlash, stress va travmalarni bartaraf etish, o'z-o'zini baholash va o'zini anglash jarayonlarini qo'llab-quvvatlash. Psixoterapiya orqali jinoyatga olib borgan ichki sabablar ochib beriladi va ularga nisbatan sog'lom muqobil yondashuvlar ishlab chiqiladi.

Mentorlik tizimi: jinoyatdan qaytgan o'smirlar uchun hayotiy tajribaga ega, ijobiy shaxslar (murabbiylar) tomonidan doimiy ruhiy va axloqiy ko'mak berilishi. Mentorlar yosh jinoyatchilarga hayotda ijobiy yo'lni tanlashda namuna bo'lib xizmat qiladi.

Ruhiy salomatlikni qo'llab-quvvatlash: depressiya, tashvish, o'z joniga qasd qilish fikrlari, izolyatsiya kabi holatlarni erta aniqlash va ularni psixologik xizmat orqali bartaraf etish. Ayniqsa, ichki motivatsiyani shakllantirish va o'ziga ishonchni tiklash orqali profilaktika kuchaytiriladi.

2. Ijtimoiy adaptatsiya: ta'limga qaytarish, kasb-hunar o'rgatish, sport-to'garaklar
Jinoyat sodir etgan voyaga yetmagan jamiyatdan ajralgan bo'ladi. Unga qayta integratsiya uchun muqobil faoliyat turlari, mehnat, bilim, sport orqali ijtimoiy qadriyatlar singdirilishi zarur.

Ta'limga qaytarish: o'smirlarni maktab yoki kasb-hunar kollejlariga qaytarish orqali ularning bilim olishga bo'lgan ishtiyoqi, ijtimoiy rollari va mas'uliyat hissi tiklanadi. Shu bilan birga, ta'lim psixologik barqarorlikning asosiy manbalaridan biridir.

Kasb-hunar o'rgatish: qo'l mehnatiga asoslangan kasblarni egallash voyaga yetmaganlar uchun nafaqat iqtisodiy erkinlik, balki ijtimoiy tan olinuvchanlik hissini ham beradi. Bu esa ularni jinoyatdan uzoqlashtiradi.

Sport va madaniy to'garaklar: ijtimoiy aloqalarni mustahkamlash, agressiyani sog'lom shaklda chiqazish, ijobiy guruhga mansublik hissini shakllantirishda muhim vositadir. Sport orqali intizom, mashaqqatga chidamlilik, sheriklik kabi ijobiy fazilatlar tarbiyalanadi.

3. Ijtimoiy qo'llab-quvvatlovchi tizimlar: oilaviy muhitni tiklash, murabbiylar instituti

Oila voyaga yetmagan shaxsning eng muhim ijtimoiy muhitidir. Agar bu muhitda salbiylik hukm sursa, jinoyatchilik xavfi ortadi. Shu sababli oilaviy asosni mustahkamlash, ichki muhitni sog'lomlashtirish zarur.

Oilaviy muhitni tiklash: psixologlar va ijtimoiy ishchilar yordamida ota-onalar bilan ishlash, tarbiyaviy yondashuvlarni qayta ko'rib chiqish, mehr, e'tibor va nazoratni muvozanatli tashkil etish lozim.

Murabbiylar instituti: voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy masalalarda yo'l-yo'riq ko'rsatadigan maxsus tayyorgarlikdan o'tgan shaxslar tomonidan qo'llab-quvvatlash. Ular nafaqat maslahat beradi, balki hayotiy qarorlarni shakllantirishda ishtirok etadi. Bunday tizim bolani yolg'iz emasligiga ishontiradi va unda ishonch hissini shakllantiradi – bu esa qayta jinoyatni oldini olishdagi kuchli psixologik omildir.

4. Davlat va NNTlar hamkorligida yaratilgan profilaktik mexanizmlar

Keng qamrovli profilaktika uchun yagona tizim doirasida davlat organlari, nodavlat tashkilotlar (NNT), maktablar, psixologik markazlar va mahalla muassasalari hamkorligi zarur.

Davlat darajasida: qonunchilik, ijtimoiy siyosat va bolalar bilan ishlashga ixtisoslashgan muassasalar orqali qayta jinoyatchilikni kamaytirish dasturlari ishlab chiqilishi lozim. Misol uchun, maxsus rehabilitatsiya markazlari, "ikkinchi imkoniyat" dasturlari.

NNTlar tomonidan: mustaqil psixologik yordam markazlari, treninglar, maslahat xonalarini tashkil etish orqali bolalarning shaxsiy rivojlanishini rag'batlantirish. Shu bilan birga, jamiyatda stigma va befarqlikka qarshi ishlash.

Hamkorlik modeli: ijtimoiy ishchi, psixolog, pedagog, profilaktika inspektori, NNT vakili va mahalla faollaridan iborat guruhlar voyaga yetmagan shaxs atrofida barqaror ijtimoiy qo'llab-quvvatlovchi muhit yaratadi. Bunday ko'p yo'nalishli yondashuvlar individual yondashuv bilan tizimiy nazoratni uyg'unlashtiradi.

Qayta jinoyatchilikni oldini olish bu – faqat jinoyatning tashqi sabablarini yo'q qilish emas, balki voyaga yetmaganlarning ichki holatini anglash, ularning ehtiyoj va travmalarini ijobiy yo'l bilan hal etishga qaratilgan chuqur psixologik va ijtimoiy harakatdir. Reabilitatsiya dasturlari, ta'lim, kasb, sport, oila va jamiyatdagi ijobiy model – bularning barchasi jinoyatdan qaytgan yoshlarni yangi hayot sari yetaklaydigan asosiy ustunlardir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. Андреева Г. М. Социальная психология. – М.: Аспект Пресс, 2005. – 382 с.
2. Бехтерев В. М. Объективная психология. – СПб.: Питер, 2000. – 288 с.
3. Гильяревский Р. С. Преступность несовершеннолетних: причины и профилактика. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2011. – 264 с.
4. Эйдемиллер Э. Г., Юстицкис В. В. Психология и психотерапия семьи. – СПб.: Питер, 2008. – 544 с.
5. Карабанова О. А. Возрастная психология. – М.: Академия, 2010. – 320 с.
6. Михайлова О. А. Рецидив подростковой преступности: факторы и пути профилактики // Вестник Московского университета. Серия 14. Психология. – 2019. – №2. – С. 47–59.
7. Karpowicz K., Głaz S. Risk Factors in Juvenile Delinquency: A Review of Empirical Studies // International Journal of Environmental Research and Public Health. – 2020. – Vol. 17(21). – P. 7961.
8. Lipsey M. W. The Primary Factors That Characterize Effective Interventions with Juvenile Offenders: A Meta-Analytic Overview // Victims and Offenders. – 2009. – Vol. 4(2). – P. 124–147.
9. Озерова Н. А. Система социальной профилактики повторной преступности среди несовершеннолетних // Психология и право. – 2022. – №1. – С. 25–33.